

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI YANGI AVLOD DARSLIK LARI BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Abdujalilov Farruxbek Po‘latjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti Registrator offisi menejeri

E-mail: abdujalilovfarrux32@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21337305>

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada muallif tomonidan bo‘lajak mutaxassislarni yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Ta‘lim tizimining raqamlashtirilishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi yangi avlod darsliklaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Tadqiqotda talabalarning axborotni izlash, tahlil qilish, mustaqil o‘rganish va amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda yangi avlod darsliklarining o‘rni tahlil qilingan. .

Kalit so‘zlar: bo‘lajak mutaxassis, yangi avlod darsliklari, ta‘lim sifati, kasbiy kompetensiya, raqamli ta‘lim, mustaqil ta‘lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv.

АКТУАЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НАВЫКОВ РАБОТЫ С УЧЕБНИКАМИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: в данной научной статье автором освещается актуальность развития у будущих специалистов навыков работы с учебниками нового поколения. Цифровизация системы образования, широкое внедрение инновационных педагогических технологий, а также приоритетность компетентностного подхода требуют эффективного использования учебников нового поколения. В исследовании анализируется роль учебников нового поколения в формировании у студентов навыков поиска, анализа, самостоятельного изучения информации и её применения в практической деятельности.

Ключевые слова: будущий специалист, учебники нового поколения, качество образования, профессиональная компетенция, цифровое образование, самостоятельное обучение, инновационные педагогические технологии, информационно-коммуникационные технологии, учебный процесс, компетентностный подход.

THE RELEVANCE OF DEVELOPING FUTURE SPECIALISTS' SKILLS IN WORKING WITH NEXT-GENERATION TEXTBOOKS

Abstract: This scientific article, authored by the researcher, highlights the importance of developing the skills of future specialists to work with new-generation textbooks. The digitalization of the education system, the widespread implementation of innovative pedagogical technologies, and the prioritization of a competency-based approach necessitate the effective use of these new textbooks. The study analyzes the role of new-generation textbooks in forming students' skills in information retrieval, analysis, independent learning, and practical application.

Keywords: future specialist, new-generation textbooks, educational quality, professional competence, digital education, independent learning, innovative pedagogical technologies, information and communication technologies, educational process, competency-based approach.

Kirish (Introduction):

Jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish vositalarini takomillashtirish hamda ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va axborotlashgan jamiyat sharoitida mutaxassisdan nafaqat nazariy bilim, balki zamonaviy axborot resurslari bilan ishlash, mustaqil o'rganish va o'z bilimlarini muntazam ravishda yangilab borish ko'nikmalari ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak mutaxassislarni yangi avlod darsliklari bilan ishlashga tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda ta'lim mazmunini yangilash dolzarb masalaga aylanmoqda¹.

Adabiyotlar tahlili va metodlar (Literature analysis and methods):

Bugungi kunda ona tili fanlarni o'qitishda mediata'lim va turli xil dasturiy-pedagogik vositalardan keng foydalanilmoqda. Sinflarga yangi avlod o'quv kitoblarining kelishi va ushbu kitoblarda mavzularning elektron shaklidagi videodarslarni ko'rish uchun maxsus QR-kodining qo'yilishi bilan fan ham o'zgarib boshladi. O'quv faoliyatining dizayni va tadqiqot shakli hamda usullari, o'qitishning yangicha uslublari tobora ko'proq qo'llanilib, rivojlanib bormoqda. Boshlang'ich ta'limda mediatexnologiya vositalaridan foydalanish o'quvchilar kognitiv faoliyatining samarali usuli bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun darsni takomillashtirishga keng imkoniyatlar ochadi.

B.Omonov ta'kidlaganidek: “Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi oqibatida tezkor sur'atlarda kengaygan globallashuv va mintaqalararo integratsiya davlatlar qurilishida yangi davrni boshlab berdi. Aslida globallashuv modernizatsiyalashuv jarayonini tezlashtirdi, desak xato bo'lmaydi. Negaki, globallashuv-umumiy, to'g'rirog'i, g'arbona umumiy g'oya atrofida birlashishdir”². Mediata'limga asoslangan kognitiv mashg'ulotlarini media vositalar hamda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda tashkil etish, o'rganilayotgan materiallarni yanada aniqroq va tushunarliroq taqdim etishi va o'quvchilarning tasavvur qilish imkoniyatini keng ko'lamda oshirishga yordam beradi. Buning sababi shundaki, hamma o'quvchilarning ham tasavvur va idrok qilish qobiliyati bir xil emas.

Metodologiya (Methods):

Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish - zamonaviy ta'lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli transformatsiya talablariga javob beradi. Bu bo'lajak kadrlarning tanqidiy fikrlashini, kreativligini va axborot texnologiyalari bilan ishlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi metod va yondashuvlar ushbu ko'nikmalarni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.

² Усманова М.А. Социально-философский анализ проблемы информатизации современного общества: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Т.: Университет, 1997. – 48

➤ **Kompetensiyaviy yondashuv:** kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. Maktab ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limini amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim³.

➤ **STEAM yondashuvi:** o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki mantiqiy fikrlash ta'limidir.

➤ **Interaktiv va muammoli ta'lim metodlari:** Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar asosida ular egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, xulosani o'zlari chiqarishga undalmoqda. Bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishi uchun sharoit yaratiladi. Qayd etishni istardimki, davlatimiz tomonidan ta'lim sohasida yaratilgan yuksak darajadagi sharoit va samarali himoya mexanizmlari xalqaro miqyosda mustaqil ekspertlar ("INSEAD" tadqiqotlari) tomonidan e'tirof etildi. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizning ta'lim sohasini rivojlantirishi, ushbu sohaga davlat xarajatlari, kapital qurilish va maktablarni yangilash xarajatlari, o'qituvchilar sonining o'quvchilar soni bilan nisbati, aniq fanlar va muhandislik ishi sohasida bitiruvchilar soni, GMAT (biznes maktablarda muvaffaqiyatli o'qish qobiliyatlarini aniqlash uchun standartlashtirilgan test) bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha bahosiga doir va boshqa ko'rsatkichlari juda balanddir. Keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini - innovatsiyalar bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish etmoqda. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir⁴.

³ Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.

⁴ Komil Uralovich Yahshilikov (2023). Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar. Science and Education, 4 (10), 369-373.

Natijalar (Results):

Global o'zgarishlar davrida turli darajadagi ta'lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro solishtirma dasturlarida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim tizimining salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida qaraladi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro solishtirma dasturlar natijalarning kompleks tahlillari, o'quvchilarning o'qish, tabiiy fanlar, matematik va ijodiy fikrlash savodxonligini baholash, xalqaro dasturlar metodologiyasi va baholash mezonlaridan milliy o'quv-uslubiy va o'lchov materiallarini yaratishdan foydalanishga turtki bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon «umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish⁵» maqsadida qabul qilingan. Farmon orqali «O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishga erishish» belgilab qo'yilgan. Farmon bilan tasdiqlangan konsepsiyada o'z navbatida buning uchun qilinishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, «o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbik etish» kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Konsepsiyada xalq ta'limi tizimidagi ba'zi muammoli holatlar ham o'z ifodasi topgan. Xususan, «pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi», «pedagoglarning metodik ta'minoti» qoniqarli emasligi, «darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi, ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga» omil bo'lib qolayotganligi, «ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir» etishi keltirilgan. O'z navbatida «davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek, darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va band qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda», «foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha va muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish talab etilmoqda»⁶ deb bayon etilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda yangi darsliklarning o'quv jarayoniga tadbiq etilishi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Dolzarbligi nimalarda bo'lishi mumkin? Masalan, yangi darsliklarda berilayotgan mavzular, topshiriqlar, uy ishlari kabi tushunchalarni o'quvchilarga o'rgatish uchun o'qituvchidan ko'p bilim, ko'nikma va malakalar talab etilmoqda. Sababi shundaki, dastlab ta'kidlaganimizdek yevropa ta'lim standartlari asosida tadbiq etilayotgan ushbu darsliklarni o'quvchilarga tushuntirib ularning shuurida shakllantirib bera olish uchun, o'qituvchidan ko'p bilimlar talab etiladi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. Усманова М.А. Социально-философский анализ проблемы информатизации современного общества: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. - Т.: Университет, 1997. - 48
3. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
4. Komil Uralovich Yahshilikov (2023). Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar. Science and Education, 4 (10), 369-373.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son